

MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALARDA NUTQ NUQSONLARINI BARTARAF ETISHNING ZAMONAVTY USULLARI

Xakimova Shohista Shodiyevna

*Jizzax shahar maktabgacha ta’lim tashkilotiga qarashli
33-sonli Davlat maktabgacha ta’lim tashkiloti logopedi*

Annotatsiya: *Ushbu maqolada maktabgacha yoshdagi bolalarda nutq nuqsonlarini bartaraf etishning zamonaviy usullari yoritilgan. Ta’kidlash joizki, logopedlik amaliyotidagi innovatsion texnologiyalar - bu umumiy qabul qilingan, vaqt sinovidan o’tgan texnologiyalarga qo’shimcha (diagnostika texnologiyasi, ovozli sahna texnologiyasi, nutqning talaffuz tomonlarini turli xil buzilishlari uchun nafas olish texnologiyasi va boshqalar) usullar hisoblanadi.*

Kalit so’zlar: *nutq, muloqot, nuqson, logoped, innovatsion texnologiyalar, ilk yoshlik davri, rangli o’yinchoqlar, korrektsiyalash.*

Izchil nutq - bu odamlarning muloqotini va o’zaro tushunishini ta’minlaydigan semantik batafsil bayondir. Bunday nutq yuqori aqliy funktsiyalar, so’z boyligi, grammatika, fonetika rivojlanmaganligining barcha xususiyatlarini aks ettiradi. Nutqida nuqsoni bo’lgan bolalarning aksariyatida biz izchil nutqning past darajada rivojlanishini kuzatishimiz mumkin. Ba’zan bolalar uchun ob’ekt haqida qisqacha tavsiflovchi hikoya tuzish juda qiyin, ular uchun ijodiy hikoyalar tuzishda yanada qiyinroq vazifa bo’lishi mumkin. Bolalar muloqotni olib borishda, rasmdan hikoyalar tuzishda qiyinchiliklarga duch kelmoqdalar. Bolalarning izchil nutqini shakllantirmaslik, barcha nutqiy fikrlash faoliyatining rivojlanishiga salbiy ta’sir qiladi, ularning kommunikativ ehtiyojlari va kognitiv imkoniyatlarini cheklaydi.

Nutqning uyg’unligini shakllantirish, so’zlarni mazmunli va mantiqiy tuzish ko’nikmalarini rivojlanirish maktabgacha yoshdagi bolaning nutq tarbiyasining asosiy vazifalaridan biridir. Shuning uchun izchil nutqni shakllantirishning yangi maxsus uslubiy usullari va vositalarini izlash muhimdir.

«Ta’lim to’g’risida»gi qonunda maktabgacha ta’lim to’g’risida shunday deyiladi: «Bu ta’lim olti-yetti yoshgacha oilada, bolalar bog’chasida va mulk shaklidan qat’i nazar, boshqa ta’lim muassasalarida olib boriladi». Bu o’quv-metodik tadqiqotlarni yaratishda nafaqat bolalar bog’chasi, balki oila sharoitini xam xisobga olish zaruratinib keltirib chiqaradi. «Kadrlar tayyorlash milliy dasturi»da maktabgacha ta’limning asosiy yo’nalishlari quyidagicha belgilanadi: «Maktabgacha ta’lim bola sog’lom, har tomonlama kamol topib shakllanishini ta’minlaydi, unda o’qishga intilish hissini uyg’otadi, uni muntazam ta’lim olishga tayyorlaydi». Ushbu hujjatda maktabgacha ta’limni rivojlanirishning muhim vazifalari quyidagilardan iborat deb ko’rsatiladi:

- zamonaviy o’quv-uslubiy qo’llanmalar va texnika vositalari, o’yinchoqlar va o’yinlar yaratish;
- maktabgacha katta yoshdagi bolalarni xalqning boy madaniy-tarixiy merosi va umumbashariy qadriyatlar asosida ma’naviy-ahloqiy jixatdan tarbiyalash uchun shart – sharoitlar yaratish zarur.

Barcha o’qituvchilar, shu jumladan, logopedlarning o’z kasbiy faoliyatiga innovatsion xarakter berish istagi ta’limning shaxsga yo’naltirilgan pedagogika pozitsiyasiga o’tishi bilan bog’liq [I, b. 7]. Logopedlar korrektsiya va pedagogik ishdagi yangiliklardan foydalangan holda, nutqida nuqsoni

bo'lgan bolalarda ularning individual qobiliyatlarini, shu jumladan til qobiliyatini rivojlantirishga intilishadi, dasturiy bilimlar, ko'nikmalar va malakalarini shakllantirish bilan cheklanmaydilar.

Tadqiqotchilar innovatsion logopedik texnologiyasini "uning sifatini oshirishga qaratilgan tuzatish ishlarining zamonaviy, yangi usullari va uslublarini joriy etishga asoslangan puxta o'ylangan texnologiya" deb tushunadilar [I, b.9]. Texnologiyaning "innovatsionligi" ning asosiy mezonlari uni qo'llash orqali o'quv jarayoni samaradorligini oshirishdir. Ta'kidlash joizki, logopedlik amaliyotidagi innovatsion texnologiyalar - bu umumiy qabul qilingan, vaqt sinovidan o'tgan texnologiyalarga qo'shimcha (diagnostika texnologiyasi, ovozli sahna texnologiyasi, nutqning talaffuz tomonlarini turli xil buzilishlari uchun nafas olish texnologiyasi va boshqalar) usullar hisoblanadi.

Maktabgacha yoshdag'i (bolalar) asosan 6-7 yoshli bolalar maktabga tayyorgarligining asosiy belgilardan biri nutqini rivojlanganligidir. Bolalar bog'chasida har bir guruhda nutq o'stirish bo'yicha egallashi lozim bo'lган bilim, ko'nikma va malakalarining m'eyori ko'rsatilgan. O'z vaqtida muntazam kundalik faoliyatda, mashg'ulotlar jarayonida dasturda ko'rsatilgan vazifalar amalga oshirilsagina kutilgan natijaga erishiladi. Ba'zan bir xil yoshdag'i bolalar nutqi kuzatilganda ular darajasining har xillagini ko'rish mumkin. Demak bola nutqining rivojlanishi tevarak – atrofdagilarning (ota – onalarning, tarbiyachilarning) qanchalik e'tibor berishiga bog'liqdir. Bolaning ilk yoshlik davridan boshlab oila a'zolari, bog'chada tarbiyachilar har bir narsaning nomini to'g'ri aytib murojaat qilish kerak.

5 – 6 – 7 yoshli bolalarda lug'at boyligi 2500-3500 tagacha so'zlarni tushunishi va bilishi kerak, aks holda albatta mutaxassis bilan maslahatlashish lozim bo'ladi. Bolalar nutqi ustida ishslash jaryonida tengdoshlari bilan suhbatda xushmuomala bo'lishlariga, tabiiy ohangda gapirishlariga, so'zlashganda suhbatdoshining yuziga qarab turishlariga, qo'llari va yuz mimikalarini bamaylixotir holatda tutib turishlariga e'tibor berilishi kerak.

Bola psixologiyasi juda murakkab, ba'zi birlari injiq bo'lsa, ba'zi birlari

odamovi bo'lishadi. Agar faoliyatimiz davomida shunday holatlarga duch kelsak albatta ularga ko'proq vaqt ajratishimiz, ular bilan ko'proq suhbat olib borishimiz, savollariga javob berishimiz lozim. Bolalar aqlini rivojlantirish uchun shaklli va rangli o'yinchoqlar juda muhim. Ular bolada rang ajratish va shakllarni farqlash qobiliyati rivojlantiradi.

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, logoped faoliyatida innovatsion ta'sir o'tkazish usullari nutqida nuqsoni bo'lgan bolalar bilan korreksiyalash va rivojlantirish ishlarining istiqbolli vositasiga aylanmoqda. Ushbu usullar korreksiyaning eng samarali vositalaridan biri bo'lib, maktabgacha yoshdag'i bolalarda nutqdagi qiyinchiliklarni yengishda maksimal darajada muvaffaqiyatga erishishga yordam beradi. Har xil logopedik yordam fonida innovatsion usullar bolalar nutqini to'g'rilash jarayonini optimallashtiradi va butun tanani sog'lomlashtirishga yordam beradi. Bolalarni nutqi va aqlini rivojlantirishda hikoya, ertaklar juda foydali. Ularga ertak o'qib berilganda fikrlash qobiliyatini ham o'stirgan bo'lamic. Ayniqsa buvijon va bobojonlarimiz yoshlik hikoyalarni gapirib bergenlarida bolada albatta qiziqish paydo bo'ladi. Kecha aytib bergen ertakni qaytadan so'raganiningizda bola xotirasi mutahkamlanadi, fikrlash qobiliyati

shakllanadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. O'zbekiston Respublikasida mактабгача та'lim to'g'risidagi Nizom.
 2. Asqarxo'jayeva M. Bog'chalarda o'zbek tilini o'rganish. Bolalar bog'chalari tarbiyachilari uchun metodik qo'llanma. Toshkent: 2010.
 3. Z.Irohimova, M.G'aybullayeva. bolalar bog'chalari uchun dasturlar. Tevarak – atrof bilan tanishtirish, nutq o'stirish, badiiy adabiyot. Toshkent: 2015.
 4. D.R.Babayeva. Nutq o'stirish metodikasi. Toshkent: 2018.
 5. "Talqin va tadqiqotlar" ilmiy-uslubiy jurnali №12 BOG'CHA YOSHIDAGI BOLALARDA NUTQ O'STIRISH VA ULARNING PSIXOLOGIYASI. Abdurahmonova Niginabonu Jahongir qizi.Qo'qon davlat pedagogika instituti Maxsus pedagogika – logopediya yo'nalishi I kurs talabasi. Qurbanova Nazokatxon Iqboljon qizi. Qo'qon davlat pedagogika instituti Pedagogika – psixologiya fakulteti I kurs talabasi. <https://doi.org/10.5281/zenodo.7327135>.
 6. Елсакова А.Н., Лисовская Н.Н., Соколова И.В. Использование инновационных технологий в работе учителя-логопеда // Педагогика: традиции и инновации: материалы V междунар. науч. конф. (г. Челябинск, июнь 2014 г.). - Челябинск: Два комсомольца, 2014. - С. 33-34.
 7. Силиванова Л.В., Кондратьева С.Ю. Игры с песком в работе логопеда // Логопед в детском саду. - 2008. - № 3. - С. 38-41.
 8. Фатихова Л.Ф. Компьютерные технологии в психолого-педагогической коррекции детей // Логопед. - 2014. - №2. - С. 13-15.
 9. Филичева Т., Чиркина Г.В. Устранение общего недоразвития речи у детей дошкольного возраста. - М.: Айрис-Пресс, 2007. - 224 с.
 10. DOI 10.46566/2225-1545_2020_2_79_592 UDK 376.Egamberdiyeva M.G.o'qituvchi.Bolibekov A.A., p.f.n.dosent mактабгача ta'lim kafedrasi Guliston davlat universiteti.O'zbekiston Respublikasi, Guliston sh.
- МАКТАБГАЧА YOSHIDAGI BOLALARDA NUTQ NUQSONLARINI BARTARAF ETISH YO'LLARI. "Экономика и социум" №12-2(79) 2020 www.iupr.ru .